XALQ DEPUTATLARI O‘ZBEKISTON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-iyul VI-83-72-11-161-K/24 O‘zbekiston tumani

O‘zbekiston tumanining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman Komissiyasining 2024-yil 01-iyuldagi 12-sonli bayonnomasi bilan O‘zbekiston tumanining Qo‘qon shahri, Furqat, Uchko‘prik, Rishton va Beshariq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan O‘zbekiston tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-son xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 11-iyundagi 99-sonli xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida O‘zbekiston tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;

- Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 11-iyundagi 99-sonli xati;

- tuman ishchi komissiyasining 2024-yil 01-iyuldagi 12-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. O‘zbekiston tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) O‘zbekiston tumanining Qo‘qon shahri, Furqat, Uchko‘prik, Rishton va Beshariq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. O‘zbekiston tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, O‘zbekiston tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig’ining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) O‘zbekiston tumaniningQo‘qon shahri, Furqat, Uchko‘prik, Rishton va Beshariq tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (**N.Eshmatov**) hamda Kadastr agentligi O‘zbekiston tuman bo‘limi boshlig‘i (**A.Rajapov**) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi



YULDASHEV
SHERZOD
AKRAMOVICH

Xalq deputatlari O‘zbekiston tumani
Kengashining
2024-yil 26-iyuldagi
VI-83-72-11-161-K/24 -son qaroriga
1-ilova

M A ‘ L U M O T

№	Tuman nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**O‘zbekiston tumani**	**147058,86**	**67912,36**

Xalq deputatlari O‘zbekiston tumani
Kengashining
2024-yil 26-iyuldagi
VI-83-72-11-161-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

CHIZMASI

